
O'quvchi qizlar bilan davra suhbatini o'tkazildi

Sog'lom avlodni voyaga yetkazish, yoshlarni har tomonlama yetuk va barkamol shaxs qilib tarbiyalash bugunning eng asosiy vazifalaridan sanaladi. Shuning uchun ham bu masalaga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "**Voyaga yetmagan qizlarni erta turmushga berish, istalmagan homiladorlik holatlarining oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar rejasi**" dasturining 4-bandiga muvofiq SamDCHTI akademik litseyida erta nikoh va erta tug'ruq, yaqin qarindoshlar o'rtasida nikohlarning salbiy oqibatlari to'g'risida davra suhbatini Samarqand shahar o'smirlar poliklinikasi xodimlari bilan hamkorlikda o'tkazildi.

Uchrashuv davomida o'quvchi-qizlarga mavzu yuzasidan batafsil ma'lumot berish barobarida ularni qiziqtirgan savollarga javob berilib, fikr va mulohazalari tinglandi.

